



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 141 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	



MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR



Yarashev Mirkomil

TDIU, "Iqtisodiyot" fakulteti I-75 gurux talabasi



Ilmiy rahbar:

F.Umarov

TDIU, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrasi dosenti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash strategiyalariga bag'ishlangan. Maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati, ularning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalariga ta'siri statistik ma'lumotlar va ilmiy tahlillar asosida yoritiladi. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022-2026)" hamda "O'zbekiston – 2030" dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot, tashqi savdo, yashil iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, islohotlar, statistik ma'lumotlar, O'zbekiston – 2030 strategiyasi, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract: This article examines strategies for ensuring regional socio-economic development in the Republic of Uzbekistan through the attraction of foreign investments. The study highlights the importance of foreign investment and its impact on the economy and social sectors based on statistical data and scientific analysis. It also reviews reforms implemented within the “New Uzbekistan Development Strategy (2022-2026)” and the “Uzbekistan – 2030” program. Drawing on international experience and modern approaches, the article provides recommendations for enhancing regional socio-economic development.

Key words: foreign investments, socio-economic development, regional economy, foreign trade, green economy, digital economy, reforms, statistical data, Uzbekistan – 2030 strategy, public-private partnership.

Аннотация: Статья посвящена стратегиям обеспечения регионального социально-экономического развития Республики Узбекистан посредством привлечения иностранных инвестиций. В работе раскрывается значимость иностранных инвестиций, их влияние на экономику и социальную сферу на основе статистических данных и научных анализов. Рассматриваются проводимые реформы в рамках стратегий «Новый Узбекистан (2022-2026)» и «Узбекистан – 2030». На основе международного опыта и современных подходов представлены рекомендации по развитию региональной социально-экономической политики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, социально-экономическое развитие, региональная экономика, внешняя торговля, зелёная экономика, цифровая экономика, реформы, статистические данные, стратегия Узбекистан – 2030, государственно-частное партнерство.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqola xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini ilmiy tahlillar va statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqadi hamda xalqaro tajribaga asoslangan takliflar beradi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan investitsiya, sanoat va eksportga bevosita mas'ul bo'lgan vazirliklar, idoralar, uyushmalar, chet eldagi vakolatxonalar hamda hudud rahbarlarining investitsiya yo'nalishiga mas'ul o'rinbosarlari ushbu sohada olib borayotgan ishlari yetarli emasligi alohida ta'kidlab o'tildi. O'zaro bog'langan va dinamik global iqtisodiyotda investitsiyalarni keng jalb qilish iqtisodiy farovonlikni oshirish bilan birga davlatlar uchun strategik yo'nalishga aylanib bormoqda.

Barqaror me'yoriy-huquqiy bazadan tortib innovatsion rag'batlantirishgacha, malakali ishchi kuchini tayyorlashdan texnologik yutuqlarni qamrab olishgacha, investitsiyalarni jalb qilish yaxlit yondashuvni talab qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nozik jihatlarini ochib berish, mustahkam, dinamik va global miqyosda raqobatbardosh investitsiya muhiti yaratish alohida muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr bozorining bugungi kunda jadal o'sib borayotgan tendensiyalarini kuzatar ekanmiz, investitsiyalarni jalb qilish masalasi kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib qolayotgani ayon bo'ladi [9]. Bu esa biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhitni shakllantirishga qat'iy ehtiyoj tug'diradi.

Mazkur maqola investitsiyalarni keng jalb qilish mexanizmlarini o'rganib, mamlakatning turli mintaqalariga investitsiyalar jalb etish samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillarni tahlil qiladi.

MAVZU OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni jalb qilish va mazkur yo'nalishda samaradorlikka erishish mexanizmlari bo'yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, avstraliyalik olim A. M. Imod "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar: nazariya, dalil va amaliyot" risolasini yozgan. Ushbu kitobda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar nazariyalari, empirik dalillari va amaliy oqibatlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Unda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning motivlari, ularning qabul qiluvchi mamlakatlarga ta'siri va tegishli siyosiy masalalar qamrab olingan.

Amerikalik iqtisodchi olim, professor M. Klein hamda Janubiy Koreya biznes kolleji xalqaro biznes kafedrasida assistenti G. Kvon tomonidan "Infratuzilmaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: nega bunchalik qiyin?" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. Mazkur tadqiqotda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlar o'rganilgan [9].

Shuningdek, Klemson universiteti Moliyaviy innovatsiyalar va barqarorlik markazi direktori Jerald P. Dvayer hamda Michigan universiteti yuridik fakulteti huquq professori S. Vikramaditya Khanna tomonidan yozilgan "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar: keng qamrovli qo'llanma" asarida xorijiy investitsiyalar mohiyati, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri va investitsiyalar ortidagi iqtisodiy nazariyalar atroflicha yoritilgan.

Bundan tashqari, Jozef E. Stiglitz, Anil K. Gupta, Vijay Govindarajan va Xaiyan Vang kabi olimlar tomonidan ham to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, biznes va davlatlarning global ustunlikka erishish strategiyalari bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda investitsiyalar, global raqobatbardoshlik va strategik rivojlanish masalalari alohida e'tibor bilan o'rganilgan [9].

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda statistik baholash masalalari hamda xorijiy investitsiyalarni innovatsion iqtisodiyotga jalb etishning o'ziga xos jihatlari bir qator mahalliy olimlarning – Yo. Abdullayev, N. Soatov, A. Ayubjonov, B. Utanov, A. B. Vaxobov, A. A. Sotvoldiyev, D. E. G'ozibekov, Q. B. Xoshimov, Sh. I. Mustafakulov, A. S. Azizov va F. U. Umarov – ilmiy izlanishlarida keng tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada abstrakt-mantiqiy tahlil, analiz va sintez, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatish, tizimli yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya, sinergetik tahlil, kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining dinamik manzarasida investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatlar va mintaqalar ichki hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani yaxshilash uchun turli mexanizmlardan foydalanmoqda.



Bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillaridan biri barqaror iqtisodiy siyosatning mavjudligidir. Investorlar hukumat qoidalari, soliqlar tizimi va pul-kredit siyosatida bashoratlilik va izchillikni afzal ko'radi. Shaffof hamda investorlar uchun qulay tartibga solish muhitini yaratgan davlatlar ko'pincha xorijiy investorlar e'tiborini jalb etadi. Bunga qo'shimcha ravishda, rivojlangan infratuzilma investitsiyalar uchun muhim omildir. Investorlar zamonaviy transport tarmoqlari, samarali logistika va yetarli kommunal xizmatlarga ega hududlarga ustuvorlik beradi. Infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritayotgan davlatlar nafaqat to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi, balki biznes operatsiyalari uchun qulay ekotizim yaratadi. Bilimli va malakali ishchi kuchi esa bugungi iqtisodiyotda eng qimmatli resurslardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirish, investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish yo'nalishida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Natijada hududlarda yirik investitsiya loyihalari ishga tushirilmoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholining turmush sharoitlari yaxshilanmoqda va eng muhimi – Yangi O'zbekistonning yangi investitsiya muhiti shakllandi. Bugungi kunda xorijiy investorlarning mamlakatimizga qiziqishi ortib borayotgani ham buning isbotidir.

2024-yil 18-yanvar kuni davlatimiz rahbari tomonidan investitsiyalar va eksport masalalariga bag'ishlangan selektor yig'ilishi o'tkazilgan bo'lib, unda mazkur yo'nalishdagi muammolar, vazifalar hamda kamchiliklar tanqidiy ruhda ko'rib chiqildi. Prezidentning matbuot kotibi Sherzod Asadov ma'lumotiga ko'ra, yig'ilishda joriy murakkab vaziyatda investitsiya va eksport bo'yicha tizimli tahlil yetishmayotgani, asosiy bozorlarimizdagi devalvatsiya jarayonlari, logistika muammolari hamda global ziddiyatlar sabab eksport qisqargani qayd etildi. Shuningdek, Investitsiya vazirligi va tarmoq rahbarlari eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha o'z vaqtida zarur choralarni ko'rmagani ta'kidlandi [9].

Davlatimiz rahbari tizimdagi kamchiliklarni sanab o'tar ekan, so'nggi olti yilda mamlakatga qariyb 50 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilgan haqida hisobotlar berilayotgan bo'lsada, ushbu investitsiyalarning YAIMga, qo'shilgan qiymatga va eksportga ta'siri yetarlicha o'rganilmayotganini alohida qayd etdi. Masalan, o'tgan yili YAIM ham, sanoat hajmi ham 6 foizga o'sgan bo'lsada, tovarlar eksportida kutilgan darajada o'sish kuzatilmagan. Hududlarda esa moliyalashtirish to'liq yakunlangan 8 trillion so'mlik mingdan ortiq loyiha hali ham ishga tushirilmagan. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo'yicha hamon biror davlat bilan kelishuvga erishilmagan.

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan qiymati 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo'yicha kelishuv imzolanganiga 1-2 yil bo'lgan bo'lsada, amalda o'zlashtirish ishlari boshlanmagani ham ta'kidlangan. Bundan tashqari, ikki yil oldin tashkil etilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasiga 1 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish bo'yicha belgilangan rejalar to'liq bajarilishi shartligi ko'rsatib o'tilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 6,5 foiz ga o'sib, 115 milliard dollar ga yetgan, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 1,6 barobar oshib, 35 milliard dollarni tashkil etgan. Shuningdek, 2020-2024-yillar davomida 10 milliard dollarlik 242 ta yirik loyiha ishga tushirilgan bo'lib, 100 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan [15].

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2020-2022-yillarda 523 million dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, 1 359 ta loyiha orqali 17,5 mingta yangi ish o'ri yaratilgan. Bu loyihalar natijasida mintaqaning eksport hajmi 15 foizga oshgan bo'lib, bu hududda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. 2022-yilda qabul qilingan strategiyada 2026-yilgacha 120 milliard dollar, shu jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan.

Asosiy islohotlar quyidagilardan iborat:

- Soliq va bojxona islohotlari: 2023-yilda qo'shilgan qiymat solig'i 15 foizdan 12 foizga, 2025-yilda foyda solig'i 20 foizdan 15 foizga pasaytirildi.
- Huquqiy kafolatlar: 2017-yilda valyuta konvertatsiyasining liberallashtirilishi investorlar uchun foyda repatriatsiyasini osonlashtirdi.
- Davlat-xususiy sheriklik (DXSh): energetika, transport va sog'liqni saqlash sohalarida 14 milliard dollarlik DXSh loyihalari boshlandi.

Mazkur strategiya mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 2024-yilga kelib, 50 ta tumanga 100 million dollardan ortiq investitsiya yo'naltirilgan. 22 ta erkin iqtisodiy zonada 589 ta korxona 42 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Masalan, Navoiy viloyatida 2022-2024-yillar davomida 1,2 milliard dollarlik 45 ta loyiha ishga tushirilgan bo'lib, bu sanoat ishlab chiqarishini 20 foizga oshirgan.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun 2025-yil yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 443,6 trillion so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,2 foiz ga oshgan (1-2-rasmlar) [15].



	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
Jami	443 613,6	115,2	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	43 417,1	111,9	10,1	9,7
respublika budjeti	18 589,1	110,7	4,3	4,2
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	1 604,8	72,8	0,6	0,3
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	124,9	75,1	—	—
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	23 223,2	117,2	5,2	5,2
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	1 822,3	122,6	—	—
markazlashmagan investitsiyalar:	400 196,5	115,6	89,9	90,3
korxona mablag'lari	70 343,9	114,5	15,9	15,9
aholi mablag'lari	25 995,4	105,6	6,2	5,9
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	295 111,3	117,0	65,7	66,5
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	23 121,5	121,9	—	—
<i>shundan:</i>				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	183 321,4	148,9	32,1	41,3
<i>shu jumladan, mln AQSH dollari</i>	14 391,1	155,5	—	—
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	8 745,9	108,9	2,1	2,0

1-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami 34,5 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 24,9 mlrd dollar yoki 318,3 trln so'mni tashkil etdi.

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	183 321,4	23 223,2	111 789,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 736,6	1 157,6	6 956,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	14 655,5	417,3	6 055,5
Buxoro	10 931,9	2 995,8	8 321,6
Jizzax	9 187,2	667,6	4 799,7
Qashqadaryo	5 904,5	3 398,9	12 457,9
Navoiy	18 805,6	2 836,8	5 177,7
Namangan	32 655,1	1 109,0	6 131,3
Samarqand	10 526,4	1 240,5	7 885,1
Surxondaryo	4 999,6	1 398,1	5 312,3
Sirdaryo	7 494,4	536,1	2 991,9
Toshkent	27 352,2	2 223,9	17 616,9
Farg'ona	13 683,2	439,8	4 386,0
Xorazm	4 588,5	1 245,0	6 510,9
Toshkent sh.	17 800,7	3 556,8	17 186,9

2-rasm. Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2020-2022-yillarda 523 million dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, 1 359 ta loyiha orqali 17,5 mingta yangi ish o'rnini yaratildi. Ushbu loyihalar natijasida mintaqaning eksport hajmi 15 foizga oshib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamladi. 2022-yilda qabul qilingan strategiya xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim yo'nalishlarni belgilab berdi. Strategiyada 2026-yilgacha 120 milliard dollar, shu jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan.



Asosiy islohotlar:

- Soliq va bojxona islohotlari: 2023-yilda qo'shilgan qiymat solig'i 15 foizdan 12 foizga, 2025-yilda foyda solig'i 20 foizdan 15 foizga pasaytirildi.
- Huquqiy kafolatlar: 2017-yilda valyuta konvertatsiyasining liberallashtirilishi xorijiy investorlar uchun foydani repatriatsiya qilishni osonlashtirdi.
- Davlat-xususiy sheriklik (DXSh): energetika, transport va sog'liqni saqlash sohalarida 14 milliard dollarlik DXSh loyihalari boshlandi.


Ushbu strategiya mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. 2024-yilga kelib, 50 ta tumanga 100 million dollardan ortiq investitsiya yo'naltirildi. 22 ta erkin iqtisodiy zonada 589 ta korxona 42 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqardi. Masalan, Navoiy viloyatida 2022-2024-yillarda 1,2 milliard dollarlik 45 ta loyiha ishga tushirildi, bu esa mintaqada sanoat ishlab chiqarishini 20 foizga oshirdi [15].

2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mintaqalarda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Strategiyada 2026-yilgacha iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirish belgilangan. 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga 2 milliard dollar investitsiya kiritildi, bu esa mintaqalarni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qildi (3-rasm) [15].

Raqamli iqtisodiyot sohasida tuman statistika bo'limlarida ma'lumotlarni raqamlashtirish va elektron raqamli imzo tizimi joriy etildi. Bu esa investitsiya loyihalarini monitoring qilish jarayonini soddalashtirdi va investorlar ishonchini oshirdi.

Quyidagi statistik ko'rsatkichlar xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini namoyon etadi:

- 2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarga yetib, 2020-yilga nisbatan 2,3 barobar o'sdi.
- 2020-2024-yillarda 100 mingdan ortiq yangi ish o'рни yaratildi, ayniqsa Qoraqalpog'iston va Farg'ona viloyatlarida.
- Eksport hajmi 27 milliard dollarga yetdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 6 500 tadan 12 mingtagacha oshdi.
- 2020-2024-yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,5 baravar o'sdi; YAIMdagi ulushi 24,2 foizdan 28 foizga ko'tarildi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Xalqaro tajribaga asoslangan holda, quyidagi takliflar mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi: Singapur va BAA tajribasiga asoslanib, erkin iqtisodiy zonalar sonini ko'paytirish va ularga soliq imtiyozlarini kengaytirish. Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusiga integratsiya orqali transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

Mintaqalarda texnoparklar va startap akseleratorlari tashkil etish orqali xorijiy texnologik kompaniyalarni jalb qilish. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalarni ko'paytirish, masalan, quyosh va shamol energiyasi loyihalariga 5 milliard dollar jalb qilish. Investitsiya loyihalarini boshqarish uchun blokcheyn va sun'iy intellektga asoslangan platformalarni joriy etish.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekistonning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. "Yangi O'zbekiston" va "O'zbekiston – 2030" strategiyalari doirasida amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiy



o'sish, ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga xizmat qildi. Statistik ma'lumotlar 2024-yilda xorijiy investitsiyalarning 35 milliard dollarga yetganini va 100 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilganini tasdiqlaydi [8].

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda, erkin iqtisodiy zonalar, logistika tarmog'i va yashil texnologiyalarni rivojlantirish orqali mintaqalar raqobatbardoshligi va aholi farovonligi yanada oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiya siyosati samaradorligini baholash mintaqaviy iqtisodiy o'sishning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga asoslanishi kerak. Eng muhim ko'rsatkichlar qatoriga yalpi hududiy mahsulot (YAHM) o'sishi, bandlik darajasi, aholi daromadlari dinamikasi, shuningdek korxonalarning innovatsion faollik darajasi kiradi.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari maxsus agentliklar va hududiy rivojlantirish jamg'armalari orqali allaqachon shakllantirilgan. Biroq mavjud amaliyot investitsiyalar uchun ustuvor tarmoqlarni aniqroq belgilash, shuningdek loyihalarni monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Investitsiya siyosatini rivojlantirish istiqbollari investitsiyalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, tartib-taomillarning shaffofligini oshirish hamda davlat va biznes hamjamiyati o'rtasidagi muloqotni kengaytirish bilan bog'liq. Bu nafaqat qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, balki ularning yuqori samaradorligini ta'minlash hamda mintaqaviy rivojlanishning strategik muammolarini hal qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning mintaqaviy investitsiya siyosati hududiy rivojlanish bilan hamohang bo'lishi zarur. Strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- a) hududlar kesimida investitsiyalarni rag'batlantirish;
- b) davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- c) mahalliy boshqaruv tuzilmalarining salohiyatini oshirish;
- d) siyosat oqibatlarini baholash;
- e) hududiy investitsiyalarni rag'batlantirish agentliklarini tashkil etish;
- f) investitsiya turlarini diversifikatsiya qilish (masalan, yashil energiya, raqamli iqtisodiyot);
- g) orqada qolayotgan hududlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shunday qilib, O'zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror mintaqaviy iqtisodiy o'sishga erishish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Mavjud mintaqaviy muammolarni hal qilish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatini optimallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Yillik hisobotlar. 2019-yil.
2. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ). IV modda bo'yicha maslahat hisobot: O'zbekiston. 2023-yil.
3. T. Ibrohim, M. Sabirova. "Mintaqaviy darajada inklyuziv o'sishni baholash: O'zbekistondan olingan ma'lumotlar". Sustainable Development Review, 2022, ss. 88-102.
4. F. Fazilov. "Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy o'sish omillari". Eurasian Journal of Economics and Finance, 2023, ss. 29-44.
5. Jahon iqtisodiy forumi. Global raqobatbardoshlik hisobot. 2023-yil.
6. J. Abdullaev. "O'zbekistonda inson kapitali va mintaqaviy rivojlanish". Iqtisodiyot Research Forum, 2022-yil.
7. Toshkent moliya instituti. "Infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish: O'zbekiston hududlaridan olingan empirik dalillar". Research Bulletin, 2023-yil.
8. L.A. Raximova, J. N. Qaxorova. "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish". New Renaissance International Scientific and Practical Conference, Volume 2, Issue 5, 2025-yil.
9. L.B. Yoqubov. "Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari tahlili". Qo'qon universiteti xabaromasi, 2023-yil.
10. [10] L. Rustamova. "Infratuzilma investitsiyalari va ularning mintaqaviy ta'siri: O'zbekiston misolida". Asia Development Perspectives, 2021, ss. 45-59.
11. Osiyo taraqqiyot banki (OTB). Investitsiya muhitini baholash: O'zbekiston. 2020-yil.
12. N. Komilov. "O'zbekistonda migratsiya va mintaqaviy mehnat bozorlarining iqtisodiy ta'sirlari va siyosat variantlari". Migration Economics Journal, 2021, ss. 62-78.
13. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ESKAP. Barqaror rivojlanish uchun inklyuziv investitsiyalar bo'yicha siyosat qo'llanmasi. BMT, 2023 yil.
14. M. Xudoyberganov. "O'zbekistonda davlat investitsiyalari samaradorligi". Uzbekistan Journal of Economics, 2021, ss. 15-28.
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. www.stat.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
